

Kredit mahsuloti pasporti		
Kredit mahsuloti nomi	BANDLIKKA KO'MAK	
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Ochiq kredit liniyasi orqali	
Kredit maqsadi	a) Bank o'z mablag'lari hisobidan bo'lsa - Yangi ish o'rinarini yaratish asosida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadidagi qonun bilan ta'qiqlanmagan barcha turdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun (ulgurji va chakana savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va faoliyatning boshqa sohalarida tovarlar, xom-ashyo va materiallar, bino va inshootlar, transport vositasi va mahsus hamda qishloq xo'jaligi texnikalari, uskuna va jihozlar va boshqalarni sotib olish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini bajarish va boshqa loyihalarni amalga oshirish uchun); b) Agar “TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPANIYASI” AJ kompensatsiyasi hisobidan bo'lsa - “Mahalla loyihasi” dasturi doirasida ajratiladigan kreditlarga kompensatsiya taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi bosh bitim shartlariga asosan.	
Kredit oluvchilar	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari	
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki xorijiy valyuta (ekvivalenti) da	
Kredit miqdori	a) Bank o'z mablag'lari hisobidan bo'lsa - 1 500 000 000,0 (bir milliard besh yuz million) so'mgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada; b) “TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPANIYASI” AJ kompensatsiyasi hisobidan bo'lsa - 3 000 000 000,00 (uch milliard) so'mgacha.	
Yaratiladigan yangi ishchi o'rinlari soni	5 tadan 10 nafargacha	10 nafardan ortiq
Foiz stavkasi yillik	Milliy valyutada	Milliy valyutada
	24% dan kam bo'lmagan	23% dan kam bo'lmagan
	Xorijiy valyutada	Xorijiy valyutada
	yillik 13,00 % dan kam bo'lmagan	yillik 12,00 % dan kam bo'lmagan
Kredit muddati	36 oy muddatgacha	
Imtiyozli davr	Kredit liniyasi ochilmagan hollarda 6 oy muddatgacha	Kredit liniyasi ochilgan hollarda 9 oy muddatgacha
Kredit ajratilishi	a) Bank o'z mablag'lari hisobidan bo'lsa - pul o'tkazish yo'li bilan, mijoz hisob raqamiga o'tkazish yoki bank kassasidan naqd pulda berish orqali (<i>bunda kredit mijoz hisob raqamiga o'tkazish yoki bank kassasidan naqd pulda berish orqali ajratilasa kreditning maqsadli ajratilishi alohida tartibda tekshirilmaydi va dalolatnoma rasmiylashtirilmaydi</i>); b) “TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPANIYASI” AJ kompensatsiyasi hisobidan bo'lsa - faqat pul o'tkazish yo'li orqali (<i>bunda kredit maqsadli ajratilishi alohida tartibda tekshiriladi va dalolatnoma rasmiylashtiriladi</i>).	
Qo'shimcha shartlar	1. Loyiha yuzasidan yaratilishi rejalashtirilgan ish o'rinlari kreditdan foydalanish davri davomida qisqartirib yuborilsa, kredit foiz stavkasiga berilgan imtiyozlar bekor qilinadi va dastlabki belgilangan foiz stavkasi 4 punkt (foiz) oshirilgan miqdorda qayta hisob-kitob qilinadi va mijozdan undiriladi. Ushbu shartlar kredit shartnomasida ko'rsatib o'tiladi. 2. Kredit foizini o'rnatish uchun kredit ajratilgan sanadan keyin yaratiladigan qo'shimcha ishchi o'rni hisobga olinadi. (Ish o'rni yaratilishi muddati asoslantirilishi lozim).	
Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda jami qarzdorlik 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim. Nazorat asosida bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami 7,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim. Bunda ushbu belgilangan limitdan yuqori bo'lgan va/yoki foiz stavkasi Modulli kreditlash pasportlarida belgilangan miqdordan past bo'lgan buyurtmanomalar tegishli Kollegial organing muhokamasiga qo'yilishi mumkin;	
Kreditni so'ndirish tartibi	Differential/Annuitet	
Kredit ta'minoti	"Asia Alliance Bank" ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish" talablariga muvofiq ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlari	
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik va moliyaviy hujjatlar	Kredit arizasi, ta'sis hujjatlari, korxonahabariyati va ta'sisчилari ma'lumotlari, kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'sisчилar roziligi/qarori;
		Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2-shakl, yillik va operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar
	Biznes reja va loyiha hujjatlari	Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob kitoblar
		Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar
Garov hujjatlari	Bank ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq	